



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI
O‘ZBEK TILINI RIVOJLANTIRISH JAMG‘ARMASI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI DAVLAT
TILIDA ISH YURITISH ASOSLARINI O‘QITISH VA MALAKA OSHIRISH
MARKAZI**

“DAVLAT TILI TARAQQIYOTI: MUAMMO VA YECHIMLAR”

mavzusidagi V respublika an’anaviy ilmiy-amaliy anjumani

MATERIALLARI

**“BOOKMANY PRINT”
TOSHKENT – 2025**

UO‘K: 494.375

KBK: 81.633.1

D 26

Davlat tili taraqqiyoti: muammo va yechimlar [Matn]: to‘plam / Sh.Sirojiddinov.
– Toshkent: Bookmany print, 2025. – 450 b.

Mazkur to‘plam “Davlat tili taraqqiyoti: muammo va yechimlar” mavzusidagi V respublika an’anaviy ilmiy-amaliy anjumaniga tilshunos olimlar, vazirlik, idoralar, mahalliy ijro etuvchi organlarning davlat tili bo‘yicha maslahatchilari hamda tadqiqotchilar tomonidan yuborilgan materiallardan tashkil topgan. Undagi maqolalarda davlat tilining dolzarb muammolari, ularni hal qilish bo‘yicha takliflar, yechimlar berilgan. To‘plam tilshunoslar, professor-o‘qituvchilar, tadqiqotchilar, magistrlar va talabalar uchun mo‘ljallangan.

(Maqolalarning ilmiy saviyasiga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar).

Mas’ul muharrir:

Sh.Sirojiddinov, filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

I.Azimov, filologiya fanlari doktori, professor

A.Eminov, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

B.Jo‘rayeva, filologiya fanlari doktori, professor

M.Abdiyev, filologiya fanlari doktori, professor

F.Bobojonov, filologiya fanlari doktori, dotsent

M.Saparniyozova, filologiya fanlari doktori, dotsent

M.Hakimova, filologiya fanlari doktori, professor

M.Umirzoqova, filologiya fanlari doktori, dotsent

H.Yodgorov, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

H.Suyunov, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

N.Quldashev, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazi Ilmiy-metodik kengashida nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9910-06-774-7

© “Bookmany print” nashriyoti, 2025.

LINGVOPERSONOLOGIYA LISONIY SHAXS HAQIDAGI TA'LIMOT SIFATIDA

Marhabo UMURZOQOVA*

Annotatsiya

Inson omilini markazga qo'yish, til tizimini tadqiq qilish til va undan foydalanuvchi munosabati asosiga qurilishi hodisalarga yangicha nuqtayi nazardan qarash, baholashni taqozo etadi. So'nggi yillarda shaxs, uning til egasi va undan foydalanuvchi sifatidagi belgilari, tildan foydalanish imkoniyatlari, lisoniy kompetentligi, pragmatik intensiya va kommunikativ strategiya bilan bog'liq xususiyatlarning nutqda aks etishi kabi masalalar keng tadqiq etila boshlandi. Muayyan tildan foydalanuvchi shaxs ijtimoiy mavqeyi, yoshi, jinsi, millati, madaniyati, dini kabi omillar bilan bog'liq holda o'rganilmoqda. Buning natijasi o'laroq pragmalingvistika, sotsiolingvistika, lingvokulturologiya kabi antroposentrik tilshunoslik yo'nalishlarining kesishmasida yangi yo'nalish – lingvopersonologiya shakllandi. Turli tillarda yaratilgan nutq ko'rinishlari asosida lisoniy shaxs tiplarini aniqlash, ulardagi umumiylik va xususiylikni belgilash, lisoniy shaxs voqelanishidagi omillarni tahlil qilish lingvopersonologiya asosiy vazifalaridan hisoblanadi.

Kalit so'zlar: lingvopersonologiya, antroposentrik paradigma, lisoniy shaxs, lisoniy shaxs tiplari

Linguopersonology as a Study of The Linguistic Person

Abstract

Placing the human factor at the center and basing the investigation of the language system on the relationship between language and its user necessitates a fresh perspective on phenomena and their evaluation. Issues such as the individual, their characteristics as a language owner and user, language usage capabilities, linguistic competence, and the reflection of features related to pragmatic intention and communicative strategy in speech have begun to be extensively researched. A person using a particular language is being studied in connection with factors such as social status, age, gender, nationality, culture, and religion. As a result, a new field called linguopersonology has formed at the intersection of anthropocentric linguistic directions such as pragmalinguistics, sociolinguistics and linguoculturology. One of the main tasks of linguopersonology is to identify types of linguistic personalities based on speech patterns created in different languages, determine their commonalities and specificities, and analyze the factors in the realization of linguistic personality.

* Filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent. Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU, umurzakovamarkhabo@gmail.com

Keywords: linguopersonology, the anthropocentric paradigm, linguistic personality types,

So‘nggi yillarda dunyo tilshunosligida insonning nutqiy qobiliyati hamda shaxs sifatidagi o‘ziga xosliklarning nutqda namoyon bo‘lishini o‘rganish, til egasi va undan foydalanuvchi sifatidagi xususiyatlarni tadqiq qilish, turli lingvistik va ekstralingvistik omillarning tildan foydalanuvchiga ta’siri masalasini yoritishga doir qator tadqiqotlar yuzaga keldi. Lingvopersonologiya bugungi kunda lisoniy shaxs, diskursiv shaxs, til shaxsi, kommunikativ shaxs terminlari bilan yuritilayotgan til egasi haqidagi ta’limotdir. Biz o‘zbek tilshunosligida nisbatan turg‘unlashgan lisoniy shaxs terminini qo‘llaymiz.

Lisoniy shaxsga qiziqish dastlab badiiy diskursda muallifning individual uslubi va personaj nutqining lisoniy shaxs sifatidagi o‘ziga xosliklarini o‘rganish bilan bog‘liq holda yuzaga kelgan. “Rus tilshunosligida lisoniy shaxs tushunchasiga oid qarashlar dastlab V.V.Vinogradovning badiiy proza tili tadqiqiga bag‘ishlangan asarida (1930) uchraydi. Y.N.Karaulov badiiy nutq, stilistika va poetikani o‘rganishda yangicha yondashuvga turtki berishi mumkin bo‘lgan salmoqli salohiyatga ega bo‘lgan g‘oya, tushuncha V.V.Vinogradovga tegishli ekanligini hamda badiiy matn tili tadqiqiga bag‘ishlangan ishlarda olimning ulushi katta ekanligini ta’kidlaydi” (Капулов, 2010, 28).

V.V.Vinogradov badiiy asar tili haqidagi qarashlarga munosabat bildirar ekan, Boduen de Kurtene, Potebnya ishlariga to‘xtaladi. “Potebnyaning ma’lum bir ijtimoiy-lingvistik hamjamiyatlardagi she’riy va prozaik shakllarning o‘zaro ta’siri masalasini yoritishda aniq bir konkret shakldan qochganligini, Boduen de Kurtene ham xuddi Potebnya singari badiiy asar tili haqidagi tadqiqotlaridan tarixiy tahlil va tarixiylik usullarini dunyoqarash sifatida talqin qilishdan olib tashlaganligini qayd etadi” (Виноградов, 1980, 60). Tilshunos olim “lisoniy shaxs tushunchasi Boduen de Kurteneni jamoaning ijtimoiy-lingvistik shakllari va me’yorlari konteyneri sifatida, turli xil ijtimoiy-lingvistik kategoriyalarni aks ettiruvchi, jamlovchi markaz sifatida qiziqtirganligini, individual ijod muammosi Boduen de Kurtene uchun begona bo‘lib, badiiy asar tili uni faqat ijtimoiy guruh qobiliyatlari va tendensiyalarni aks ettirish nuqtayi nazaridan qiziqtirganligini ta’kidlaydi” (Виноградов, 1980, 61). V.V.Vinogradovning muallif obrazi va badiiy obraz tushunchalariga bo‘lgan e’tibori, uning badiiy asardagi lisoniy shaxs, badiiy obraz hamda muallif obrazi bilan aloqadorlik masalasiga oydinlik kiritishiga sabab bo‘lgan.

O‘zbek tilshunosligida lisoniy shaxs, lingvopersonologiya haqida dastlab D.Lutfullayeva, D.Xudoyberganovlar munosabat bildirishgan. “Tilshunoslikda lisoniy shaxs muammosini turli tomondan o‘rganuvchi mustaqil ilmiy paradigmaning shakllanishi ham tilda inson omili muammosini o‘rganish bilan bog‘liq. Bugungi

kunda lingvopersonologiyaning muhim vazifasi lisoniy shaxs nazariyasini ishlab chiqish, turli tillarga xos lisoniy shaxs tipologiyasini yaratishdan iborat. Lingvopersonologiyaning tadqiq obyekti vazifasini alohida olingan lisoniy shaxslarning nutqiy portreti bajaradi (Лутфуллаева, Худойберганова, 2017, 38-bet).

Sh.Safarov tarjimonning lisoniy shaxs sifatidagi faoliyatiga doir, lingvopersonologiya, uning o'rganish obyekti, tadqiqot yo'nalishlari haqidagi qarashlar bugungi kunda yaratilayotgan tadqiqotlar uchun muhim ahamiyatga egaligini ta'kidlaydi. Lisoniy shaxs har qanday til egasi emas, til imkoniyatlaridan mohirlik bilan foydalangan shaxsga nisbatan lisoniy shaxs atamasini qo'llash maqsadga muvofiqdir. Lisoniy shaxsning tildan foydalanish darajasining oshishi yaratuvchanlik qobiliyati bilan bog'liq. "Olamning konseptual manzarasi zahirida hosil bo'ladigan bilim egasi bo'lgan shaxs "kommunikativ yetuklik" darajasiga erishganidan so'ng uning lisoniy qobiliyati yaratuvchanlik uzvi bilan boyiydi. Demak, haqiqiy lisoniy qobiliyat "yadroviy sintaktik strukturalarning tuzilish qoidalarini egallash orqali shakllanmasdan, balki mental va kommunikativ maqsadlarni umumlashtiruvchi nutqiy-tafakkur faoliyat malaka-ko'nikmalari mavjudligida namoyon bo'ladi" (Сафаров, 2018, 10-bet).

Sh.Safarov Y.N.Karaulovning lisoniy shaxs shakllanishining uch bosqichi shartli ekanligini ta'kidlaydi, "chunki ular tarkibidagi birliklarning o'zaro aloqasi nafaqat u yoki bu bosqich doirasida, balki bosqichlararo ko'rinishda ham namoyon bo'ladi. Shunga binoan, lisoniy shaxsga xos xususiyatlar tuzilishini bosqichlar munosabatining vertikal tasvirida namoyish etgandan ko'ra doira shaklida tasvirlash ma'quldir. Zotan, doira shakli struktur aloqalar va munosabatlar dinamikasini aniq tasavvur qilish imkoniyatini beradi" (Сафаров, 2018, 11-bet). Tilshunos olim tarjimon lisoniy shaxsi, uning o'ziga xosliklari, ikkilamchi lisoniy shaxs masalasiga e'tibor qaratadi. "Ijtimoiy-lisoniy shaxs rolini bajarishi va mutaxassis sifatida madaniyatlararo muloqot paytida subyektlarning bir-birini tushunishini ta'minlovchi lisoniy-madaniy vositalar, amallar majmuasini shakllantirilishi va boyitilishi"ni tarjimon faoliyatini harakatga keltiruvchi asosiy motiv sifatida baholaydi (Сафаров, 2018, 19-bet).

D.Xudoyberganova lisoniy shaxsga quyidagicha ta'rif beradi: "Voqelikni aks ettirish darajasi, ma'lum maqsadga yo'naltirilgan nutqiy hosilalarni yaratish va qabul qilish bilan bog'liq qobiliyatlar majmuyiga ega bo'lgan shaxs, muayyan tilning namunaviy vakili" (Худойберганова, 2015, 28-bet). Sh.Usmonova lisoniy shaxsga tavsif berishda nutqiy shaxslarning serqirra va ko'pqatlamli ekanligiga e'tibor qaratadi (Usmonova, 2019, 181-bet).

Ta'riflardan ko'rinib turibdiki, lisoniy shaxs har qanday til egasi, tildan foydalanuvchi emas, namunaviy vakil darajasidagi shaxsdir. Biz ham lisoniy shaxs sifatida tildan foydalanishda uning ifoda imkoniyatlarini to'liqroq, o'ziga xos uslub

va usulda ochild bergan ijodkor shaxslarning lisoniy shaxs sifatidagi faoliyati hosilalarini tadqiq qilishga harakat qilamiz.

Lisoniy shaxs tiplari O.Hoshimov asarlari misolida D.Niyazova tomonidan o'rganilgan. Tadqiqotchi badiiy matnda lisoniy shaxs tiplarini shaxsiga xos sifatlar (ijtimoiylik belgisi, yosh xususiyatlari, jinsi, millati, dini), yakka yoki jamoa nutqini anglatishiga ko'ra ajratadi (Ниязова, 2020, 42-bet). Mazkur tadqiqotda lisoniy shaxslarni belgilashda asosan, lisoniy indikatorlarga e'tibor qaratilgan bo'lib, lisoniy shaxs nutqida qo'llaniladigan leksik birliklar, gap turlarining qo'llanilishi bilan bog'liq o'ziga xosliklar yoritilgan.

N.Normurodova lisoniy shaxsni dastlab ingliz tili materiallari asosida lingvokognitiv, lingvomadaniy, pragmatik aspektlarda o'rgangan bo'lsa (Нормуродова, 2012), doktorlik dissertatsiyasida diskursiv shaxs terminini qo'llaydi hamda mazkur terminning yuzaga kelish sababini kommunikatsiya jarayonida diskursiv amaliyot natijasida lisoniy shaxs terminining mohiyati mazmunan kengayganligi bilan izohlaydi (Нормуродова, 2020, 18-bet).

N.Normurodova ishida diskursiv shaxs "insonning diskursni yaratish va qabul qilishni taqozo qiluvchi qobiliyat va xarakteristikalarini yig'indisi sifatida tushuniladi. Tadqiqotchi diskursiv shaxsning darajaviy tavsif modelini Y.N.Karaulov tavsiflagan lisoniy shaxs asosida yaratadi, ammo takomillashtirilgan, qo'shimcha va aniqliklar kiritilganligini ta'kidlaydi" (Нормуродова, 2020, 19-bet). Haqiqatdan ham, til taraqqiy etib borar ekan, uni o'rganuvchi soha ham bir joyda qotib qolmaydi. Lisoniy shaxs tadqiqiga bag'ishlangan ishlar tahlili shuni ko'rsatadiki, dastlab lisoniy shaxsni ta'minlovchi vositalar sifatida lisoniy indikatorlar, asosan, leksik birliklar olingan bo'lsa, keyingi tadqiqotlarda lisoniy shaxsga pragmatik, kognitiv nuqtayi nazardan yondashuv masalaning mohiyati ancha chuqurligini va har tomonlama yondashuv zarurligini ko'rsatadi.

Lisoniy shaxsga berilgan tavsiflardan ko'rinib turibdiki, bu tushuncha murakkab va ko'pqirrali. Og'zaki yoki yozma matn tuza oladigan, tildan aloqa vositasi sifatida foydalana oladigan har qanday shaxs lisoniy shaxsdir. Ammo lingvopersonologiyaning o'rganish obyekti har qanday shaxs emas, tilning "dunyoni bilish, bilimlarni to'plash, saqlash, keyingi avlodlarga yetkazish, ruhiy munosabatlarni aks ettirish, go'zallik kategoriyalarini voqelantirish" (Махмудов, 2017, 55-bet) kabi vazifalarining bajarilishini ko'rsatadigan nutq tuza oladigan lisoniy shaxs bo'lishi kerak. Bu vazifalarning bajarilishi uchun esa nazarimizda lisoniy shaxs Y.N.Karaulov taklif etgan lisoniy shaxs tuzilishining uch darajasidan kamida ikkitasiga mos keladigan shaxs bo'lishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, lisoniy shaxs tushunchasi tilshunoslikda ko'p tadqiqotlar uchun obyekt bo'lgan bo'lsa-da, uning ko'pqirraligi, xilma-xilligi, o'ziga xos takrorlanmas jihatlari bilan ajralib turishi yana ko'plab tadqiqotlarga obyekt bo'la

olishini ko'rsatadi. Xususan, o'zbek adabiyoti matnlari asosida amalga oshiriladigan tadqiqot o'zbek lisoniy shaxsini tavsiflash uchun muhimdir. Lingvopersonologiya lisoniy shaxs, garchi u tilshunoslikda turlicha nomlar bilan atalsa-da, mohiyatan tildan foydalanuvchi shaxs haqidagi ta'limotdir. Nutqiy muloqotni yuzaga keltiruvchi shaxs til egasi sifatida qobiliyatlarini namoyish etish bilan birga til imkoniyatlarini ham yuzaga chiqaradi, bu esa o'z o'rnida turli-tuman lisoniy shaxs tiplari borligini hamda ular takrorlanmas bo'lishi bilan birga bir til egasi sifatida umumiy jihatlarga ham egaligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- Виноградов В.В (1980). *Избранные труды. О языке художественной прозы*. Наука.
- Караулов Ю. Н. (2010). *Русский язык и языковая личность*. Москва.
- Лутфуллаева Д., Худойберганаева Д. (2017). Тилшуносликда лисоний шахс муаммоси. *Ўзбек тили ва адабиёти*.
- Махмудов Н. (2017). *Тил тилсими тадқиқи*. Тошкент.
- Ниязова Д. (2020). *Бадиий матнда лисоний шахс типлари*. Филол. фан б. фалс. док ... дисс. Қарши.
- Нормуродова Н. (2012). *Выражение языковой личности в художественном диалоге (на материале английского языка)*. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. Самарканд.
- Нормуродова Н. (2020). *Инглиз бадиий дискурсида антропоцентризмнинг лисоний воқеланиши*. Филол. фан. д-ри (DSc) ... дисс. автореф. Тошкент.
- Сафаров Ш. (2018). *Таржимоннинг лисоний шахс сифатида бажарадиган фаолияти*. Хорижий филология.
- Usmonova Sh. (2019). *Lingvokulturologiya*. Toshkent.
- Худойберганаева Д. (2015) *Лингвокультурология терминларининг қисқача изоҳи лугати*. Тошкент.